

**MAQOL VA FRAZEOLOGIZMLARDA «AYOL» OBRAZINI IFODALASH
(FRANSUZ TILI MISOLIDA)**

A. Begmatov¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ayol obrazini ifodalovchi fransuz maqol va frazeologizmlarida ayol shaxsining xarakterini baholovchi shkalalar tahlil qilinadi. Bunda nafaqat shaxs xulq-atvori balki real borliq, voqeа hodisalarning roli va ularning ahamiyati ham e'tiborga olingan. Bundan tashqari fransuz xalqi ongida shakllangan ayollar go'zalligiga bo'lgan munosabatlarning salbiy va ijobjiy tomonlari tahlil qilingan. Umuman ayol obrazi qo'llanilgan genderli frazeologizm va maqollar hamda ulardagi salbiy va ijobjiy baholashlar qiyoslab o'rganilgan, va shu bilan birgalikda tahlil qilingan maqol va frazeologizmlar anglatgan ma'nolar tufayli olingan xulosalar berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologiya, ayol konsepti, obyektiv komponent, salbiy munosabat, ijobjiy munosabat

doi: <https://doi.org/10.2024/8kwdwp45>

Har qanday tildagi frazeologik iboralar avlodlarning, uzoq yillar jarayonida shakllangan milliy meltafitetini ifodalab keladi. Frazeologik iboralar va maqollar kundalik so'zlashuv nutqida qo'llaniladigan, to'g'ri va obrazli ko'chirma ma'noni ifodalaydigan so'z birikmalaridir. Maqollar tugallangan jumla shaklidagi, ko'pincha qofiyalashgan, pand-nasihat ma'nosidagi og'zaqi xalq ijodiga mansub xalq dono fikrlarining umumlashmasi, yig'indisidan tashkil topadi.

A.V.Artemovaning fikricha, frazeologizm va maqollar milliy madaniyatning oynasi sifatida shu xalq milliy madaniyatini, urf – odatlarni, an'analarni, olamni idrok qilishdagi katta qismli axborotni o'zida mujassam qiladi. Maqol va frazeologizmlar tarkibida keng ifodalangan “ayol” konsepting leksik-semantik sathini o'rganish ana shu jihatni bilan muhimdir (A.V. Artemova, 2000, 5 - c).

Ayol konseptiga kiruvchi frazeologizm va maqollar nasihat, o'git vazifasini bajarib, real borliqdagi voqeа-hodisa, predmet va individlarning turli sifat va belgilarini yaxshi-yomon, axloqli-axloqsiz, qabul qilish mumkin, qabul qilish mumkin emas, shkalalarida baholovchi funksiyasini ham bajaradi.

Ayol obrazining alohida elementlarini baholashda obyektiv va subyektiv faktorlar hisobga olinadi. Subyektiv baholashda obyekt ijobjiy va salbiy baholanadi, obyektiv baholashda esa, predmet va hodisalarning mohiyati baholanadi. Shu nuqtai nazardan obyektiv baholash til muhitida qabul qilingan umumiy qoidalar va me'yorlarga mos keladi.

«Ayol» konseptiga kiruvchi frazeologizm va maqollarda muayyan xalqning axloqiy yashash tarzi, ongini aks ettiruvchi obyektiv komponent ishtirok etadi. Odatda maqollarda ham fransuz xalqi ongida shakllangan ayol go'zalligiga munosabat kinoyali tarzda ifodalanadi: «Ciel pommele et femme fardee ne font

¹ A. Begmatov, SamDCHTI dotsenti

pas longue duree». Fransuz tilidagi bu maqolni o'zbek tiliga so'zma-so'z quyidagicha tarjima qilish mumkin: « Osmanni mayda bulutlar qoplasa, u tez orada tarqalib ketadi, o'ziga pardoz bergen ayolning go'zalligi ham uzoq davom etmaydi» Maqolda tabiat hodisasidegi o'tkinchilik xunuk ayolning o'ziga oro berishi bilan qiyoslanayapti. Bunday holda «xunuk bo'lsang, qancha pardoz qilsang ham aslingga qaytasan, ya'ni tabiiy go'zal bo'la olmaysan», - degan salbiy pragmatik ma'no anglashiladi. Quyidagi maqolda esa, «ayollarda go'zallikdan tashqari hech qanday insoniy fazilat yo'q, - degan goya konnotasiya qilingan:

«La plus belle femme du monde ne peut donner que ee qu 'elle a»-

Dunyodagi eng go'zal ayol ham o'z go'zalligidan boshqa hech qanday fazilatga ega emas, uning bundan boshqa erkaklarni qiziqtiradigan hech narsasi yo'q degan konservativ erkaklar falsafasidagi konnotativ ma'no ustivor.

Ayrim maqollarda ayol shaxsi ulug'lanadi, ammo bu o'rinda ham yashirin kinoya ohangi, bepisandlik sezilib turadi:

«Se que femme veut, Dieu le veut» - «Ayolning tilagi- Allohning tilagi». Maqol zamiridagi bunday salbiy konnotatsiyani Fransuz adibi T. Gotyening «Madmuazel Mopen» asaridan olingen quyidagi misol orqali izohlash mumkin:

Le proverbe «Se que femme veut, Dieue le veut»- n'est pas plus vrais que tout autres proverbes, ce qui veut dire, qu'il ne V'est guere.(Kondrashov 2005:42 b)

«Ayolning tilagi-Xudoping tilagi» maqoli barcha maqollar singari ayni haqiqat, ammo bu mutlaqo noto'g'ri».

Ayol obrazi orqali ifodalangan bunday salbiy munosabat quyidagi maqolda yanada yaqqol seziladi:

«Fume, pluie et femme sans raison chassent Lhomme de la maison»- «Uy tutunga to 'Isa, tomdan chakka o'tsa, ayol tinimsiz javrasa, erkak ko'chaga chiqib ketishga majbur». Bu urinda ro'zg'ordagi barcha yumushlarni xotini zimmasiga yuklab qo'ygan tarallabedod erkak obraziga ham yashirin kinoya konnotaliya qilinayapti. Ayolning uy-ro'zg'or ishlariga mas'ulligi, ulardagi nuqsonlar tabiiyligi ba'zan uy hayvonlariga qiyoslanadi:

«Des femmes et des chevaux, il n'en est point sans defaut»- Ayollar tabiatini xuddi otlarniki singari nuqson siz bo 'Imaydi. Maqol zamiridagi konnotatsiya, pragmatik ma'noni «er asov xotinni ham xuddi ot singari jilovlab olishi lozim», - deya izohlash mumkin.

Ayol obrazining tabiat hodisalari orqali qiyoslanib pand-nasihatli xulosaga kelish ayrim hollarda neytral munosabatni ham ifodalaydi:

«C'est le diable qii bat sa femme et marie sa fille». So'zma so'z tarjimasi: Shayton xotinini urib, qizini turmushga berayapti». Go'yo bu aforizmga aylangan maqolda hech qanday ma'no yo'qdek. Ammo Fransuzlar bu iborani qo'llashganlarida, momoqaldiroq guldirayotganini, tez orada sharros yomg'ir quyib, qo'ziqorinlar o'sib chiqishligini, ob-havo o'zgarishini nazarda tutadilar. Iboradan «axmoq xotinini do 'pposlab, qizini erga beradi» degan pragmatik mazmunni ham anglash mumkin.

Quyidagi maqolda esa, ayolga nisbatan ijobiy munosabat ifodalangan: «Il faut etre compagne de sa femme et maître de son cheval» - Maqolni o'zbek tiliga asliyatdagagi mazmunda so'zma-so'z tarjima qilish mumkin: «Xotiningning ko'nliga qarasang ham, otingni jilovini mahkam ushla».

Maqoldan ifodalangan pragmatik ma'no: «aks holda ot seni turli balolarga giriftor qilishi mumkin».

**International Conference
HUMANISTIC ROLE OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE CONTEMPORARY
GLOBALIZATION**

Ta'kidlash joizki, fransuz tilida ayol obrazi qo'llanilgan genderli frazeologizmlarda subyektiv salbiy baholash ijobiy laridan ko'proqni tashqil qiladi. Masalan:

«Prenez maison faite et la femme a faire» - «Uyni qurilib bitganidan, xotinni ko'zi ochilmaganidan ol».

Maqoldan «bitgan uy olmasang yana ko'p tashvish chekib, uni bitkazasan, ko'zi ochilmagan, ya'ni tajribasiz qiz olsang, o'zing tarbiya qilib olaverasan» degan pragmatik konnotatsiya mavjud.

Quyidagi maqolda esa, umuman uylanmaslik goyasi ilgari suriladi:

«Qui veut tenir nette sa maison n'y mette femme, pretre, ni pigeon» - «Kimki uyini pokiza saqlashni istasa, unga ayolni, ruhoniyni va kaptarni kiritmasin».

Bu maqolda ayol zoti baribir порок, gunoh ishlarni ko'p qiladi, ruhoniy unga rahnamolik qiladi, kaptar esa uyni iflos qiladi, - degan «ayol» zotiga bepisand salbiy pragmatik munosabat o'z aksini topgan.

Bunday salbiy munosabat quyidagi misolda yanada obrazliroq yangraydi:

«Qui femme a, guerre a» - «Xotinli uy g'urbat», «Xotin olsang, g'urbat ham olasan». Bu o'rinda ayollarning janjalkashligi, huda-behuda erlarining joniga tegishlari pragmatik konnotatsiya qilinib, erkaklarning ayolga nisbatan bepisand salbiy munosabati ifodalananayapti.

«Qui epouse la femme (la veuve) epouse les dettes» - «Beva xotin olsang, uning qarzlarini ham o'zing to'laysan» - ya'ni maqol zamirida ayolning o'tmishidagi barcha yaxshi- yomon ishlarini kechirishga majbursan, - degan o'git yotadi.

Ayol shaxsiga behurmatlik, ular shaxsini yerga urilishi, kamsitilishi, ularning huquqlarini tan olinmasligi, ularga nisbatan hukmronlik kabi salbiy munosabatlar fransuz maqollarining asosiy qatlamini tashkil qiladi. Shu ma'noda juda ko'pchilik maqollarda ayol shaxsiga nisbatan bepisandlik. salbiy munosabat erkaklarning axloqsizliklari orqali kinoya qilinadi:

«Faute de mieux, le roi couche avec sa femme» - «Yaxshiroq ayol topilmaganida, qirol o'z xotinining yotog'iga kiradi» Ya'ni maqolda erkaklar doimo go'zal ayollar ko'nglini olishga, buning uchun hech narsadan qaytmaslikka haqli, - degan feodal qarashlar o'z aksini topayapdi.

Ayrim maqollarda ayol shaxsiga bepisandlik mashhur shaxslar nomi bilan ham ifodalanadi:

«La femme de Cesar pe doit pas etre soupçonner» - «Sezarning xotini har qanday shubha gumonlardan xoli», ya'ni boobro' amaldor shaxsning xotini ko'ngliga nima kelsa, barcha bema'niliklarni qilaveradi, uni bunda ayblab bo'lmaydi.

Quyidagi maqolda esa, uddaburon erkaklar yuqori mavqega erishishlari uchun hech narsadan tap tortmasligi lozimligi, ayol go'zalligi va pul misolida talqin qilinadi:

«Faveurs, femmes et deniers font de vachers chevatiers». Ko'klarga ko'tarish, ayollarни ishga solish va pul - sigir mijozli odamlarni ham tulporlarga aylantirib yuborish mumkin .

«Paris est le paradis des femmes (le pargatoire des hommes) et l'enfer des chevaux» - Parij ayollar uchun jannat, tulporlar uchun do'zaxdir.

Maqolda Parijda ayollar ko'nglilariga kelgan har qanday noma'qulchiliklar qilib, jannatdagidek yashashlari mumkin, erkaklar esa(tulporlar) bu ishda bor-yug'ini sovurib, do'zax azobiga giriftor bo'ladilar, -degan pragmatik ma'no va Parij shahri aysh-ishrat shahri ekanligi kinoya qilinmoqda.

Ayollar xarakteridagi erkaklarga xos sifatlar: tap tortmaslik, erining xulq atvoriga nisbatan isyonkorlik erkaklar tomonidan yaratilgan quyidagi salbiy konnotatsiyali frazeologizmlarda o'z aksini topgan:

«C'est la femme de Job». Job afsonaviy yovuz kuchning nomi, xulosa: yovuz odamning xotini ham yovuz. Bu frazeologizm o'zbek tilidagi «o'taketgan shallaqi ayol» iborasiga mos keladi.

«S'est sa femme qui porte les chausses- so'zma- so'z: erining ortidan ishtonini ko'tarib yuradigan xotin. Aslida bu maqol rus tilidagi «Он у жены под башмаком», o'zbek tilidagi «Xotini uni nuqtalab olgan, burnidan ip o'tkazib olgan», «xotinini quli» mazmunidagi frazeologizmlar ifodalagan ma'nolarga mos keladi.

«Femme de marin, femme de chagrin» - «Dengizchining xotini-g'amning xotini» maqolida esa, uzoq safarlarda yuruvchi dengizchining xotini qayg'u- gam, alamning xotini ekanligi kinoyali tarzda pragmatik konnotatsiya qilinadi.

«La fille» so'zi bilan yasalgan maqollar «Fransuzcha- ruscha frazeologik lug'at»da (1963 525 b) bor- yo'g'i o'ttiztagina bo'lib ular «ayol» so'zi bilan yasalgan maqollardan farqli o'laroq, ifodalaydigan konnotatsiyaning unchalik salbiy emasligi bilan, ko'proq hayotiy tajribalar orqali to'plangan dono o'gitlarni ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Cette fille est belle au coffer. Maqol bu qiz o'zi xunuk bo'lsa-da, bisoti ko'p, yaxshi yashay desang, xunuk bo'lsayam, boy qizga uylan, - degan konnotatsiyaga asoslangan.

Une fille suit les meurs de sa mere. Maqlada ham ijobiy, ham salbiy konnotatsiyani ko'rishimiz mumkin. Unda «qiz onasiga o'xshaydi», degan umumiy mazmun bor. Ammo yaxshi tarbiya ko'rgan onaning qizi ham yaxshi tarbiya ko'rgan va aksincha bo'lishi mumkin. O'zbek tilida bu o'rinda «Onasini ko'rib, qizini ol», «Olmaning ostiga olma, behining ostiga behi tushadi» maqolidan foydalananiladi.

Fille et vielle parlementent sont a moitie rendu- maqolida esa «Qizni ham shaharai ham muzokara orqali osongina egallah mumkin», - degan ham siyosiy, ham ijtimoiy ma'nodagi pragmatik konnotatsiya mavjud.

Bunday ijtimoiy mavzudagi konnotatsiyani quyidagi maqolda ham uchratamiz:

Quand la fdle est mariee, on trouve toujours des gendre. Maqolda qizini shoshilinch erga bergen kishining afsusi konnotatsiya qilingan. «Men qizimni erga bergach, yaxshi kuyovlar topila boshladи». Bunday afsusni, o'z shaxsiga nisbatan kinoyani ifodalovchi konnotativ ma'nodagi mazmunni quyidagi maqolda ham ko'ramiz:

Bonjour lunette, adieu fillette. «Salom ko'zoynak, xayr qizlar» ma'nosidagi bu maqolda ko'zdan, kuch- quvvatdan qolgan qariyaning endi ishq- muhabbat bilan shug'ullana olmasligi, afsusi pragmatik ifodalangan.

Ayrim maqollar zamiridagi pragmatik ma'no shu xalqning milliy madaniy mentalitetiga to'g'ridan-to'g'ri bog'langan bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjimasi orqali ifodalangan ma'nosini ilg'ab olish juda murakkab. Masalan, quyidagi maqol fransuz dehqonlarining tilidagi ana shunday yashirin konnotatsiyaga ega:

Mal pluvieux marie le laboureur et sa fille. So'zma-so'z tarjimasi: «Yomg'irli may oyi kelsa, dehqonni uylantirib, qizini erga berdiradi». Aslida pragmatik mazmun quyidagicha: «May oyi yomg'irli kelsa, yil hosildor bo'ladi», binobarin, hosil mo'l bo'lsa beva dehqon o'zi ham uylanishi mumkin, qizini ham erga berishi mumkin.

«Ayol» konseptiga kiruvchi maqol va frazeologik iboralar tahlili quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. «Ayol» konseptiga kiruvchi leksik semantik maydonni ularning jinsiga oid belgilari, yoshi, qarindoshligi, oilaviy ahvoli, kasbi, ijtimoiy ahvoli singari parametrlar bilan aniqlanadi.

2. Ayol konseptiga kiruvchi so'zlarning semantik maydoni fransuz tilida ularning tashqi ko'rinishi (go'zal-xunuk, yoqimli-yoqimsiz), xulq atvori, ijtimoiy ahvoli, kasbi kabi parametrlar asosan salbiy ma'noli maqol va frazeologizmlarda o'z aksini topgan

3. Bunday disproporsiya fransuz tilidagi maqollarda hamon erkaklarning subyektiv baholovchi munosabatlari dominantlik qilayotganligidan dalolatdir. Shu jihat bilan maqollar fransuz tilidagi madaniy dominantlarni belgilovchi lisoniy vositalar vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Артемова А.В. Емотивно-оценочная обективация концепта женщина в семантике ФЕ // Автореферат. - Пятигорск, 2000. 25 с
- [2]. Готе Т. "Мадмуазель Мопен" -Москва. 1988.
- [3]. Илин Д.Н. Процессы позитивации/негативации лексического значения // Автореферат. - Ростов-на-Дону, 2005.27 с
- [4]. Ласточкина И., Нагорная Н. Образ женщины в картине мира носителя английского языка. - Новгород, 2003. 122 с
- [5]. Кондратов А.П, Большая энциклопедия афоризмов: законы жизни от великих -Москва: Изд-во «Рипол Классик», 2005. 525 с.
- [6]. Французско-русский фразеологический словарь (Под ред. Я.И.Реуцкера) М.1963. 1114с.